

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

6-maxsus
son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 5/6 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy

kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Норов Шухрат Сувонович</i> ФОРМИРОВАНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЫХ ЛЮДЕЙ ПРИ УЧАСТИЕ МОЛОДЁЖНЫХ ОРГАНИЗАЦИИ	8-13
<i>Jo'raqulov Boburmirzo, Masidikov Elyor</i> TUNKAT YODGORLIGIDAN TOPILGAN O'RTA ASRLAR OILAVIY HAMMOMI	14-19
<i>Allaberganova Ro'zigul</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA URGANCH SHAHRI QIYOFASINING O'ZGARISHI	20-23

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Dr. Abror Kucharov and Dr. Jyoti Meshram</i> INFRASTRUCTURE DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN: A CATALYST FOR INDIAN INVESTMENT	24-38
<i>Raximbayev Akmal Azatboyevich</i> HUDUDLARDA SANOAT AGLOMERATSIYALARINI SHAKLLANTIRISH IMKONIYATLARI VA IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRINI BAHOLASH	39-46
<i>Mamajonova Nodiraxon Alisher qizi</i> QURILISH KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING IQTISODIY AHAMIYATI	47-57
<i>Xasanova Dildora O'ktam qizi</i> QISHLOQ XO'JALIGI SOHASIGA IXTISOSLASHGAN XO'JALIK VA KORXONALAR FAOLIYATIDA ISHLAB CHIQARISH	58-71

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Абдусаммарова Сумора</i> ЦИФРОВАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА СОЦИУМ: ФИЛОСОФСКО-ПРАВОВОЕ ОСМЫСЛЕНИЕ	72-78
<i>Kubatov Shahobjon</i> UYG'UNLIK G'OYASI VA IJTIMOIIY DAVLAT HAQIDAGI TA'LIMOTLARNI SINTEZ QILISH MASALALARI	79-88
<i>Uralov Dilshodbek</i> ON HUMAN MORALITY AND PROFESSIONAL CULTURE IN THE ETHICAL VIEWS OF IBN SINO	89-93
<i>Tagaev Kamol</i> YANGI O'ZBEKISTONDA RAHBARLARNI SHAKLLANTIRISHDA IJTIMOIIY LOYIHALARNING STRATEGIK AHAMIYATI	94-99
<i>Xaydarova Zebiniso Nusratullayevna</i> EMPIRIZM, RATSIONALIZM VA KONSTRUKTIVIZM KABI TURLI EPISTEMOLOGIK NAZARIYALARDA INSON MAVJUDLIGI MASALALARI	100-106
<i>Mamadiyarova Malika</i> OILAVIY QADRIYATLARNING METODOLOGIK VA NAZARIY ASOSLARI	107-111
<i>Xolova Umida Umedovna</i> MA'RIFAT VA MA'NAVIYAT UYG'UNLIGINING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O'RNI: TARIXIY-FALSAFIY TAHLIL	112-118

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Baxramova Dilovarxon Gazanfarovna</i> O'ZBEK VA ISPAN TILLARIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI.....	119-122
---	---------

<i>Qozoqboyeva Dilfuzaxon Ilxomjon qizi</i> GENDER STEREOTYPES OF SPEECH OF UZBEK CHILDREN	123-128
<i>Pulatjonova Muxtasar</i> POLITENESS STRATEGIES IN ENGLISH AND UZBEK: A PRAGMATIC AND CROSS-CULTURAL COMPARISON	129-132
<i>Chernova Natalya Vasiliyevna</i> RUS BOLALARNING NUTIQA GENDERGA OID BELGILARNI SHAKLLANISHNING LINGVISTIK MEXANIZMLARI	133-136

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Komilov Avazbek</i> PROKURATURA ORGANLARI TOMONIDAN PROKUROR HUQUQIY VOSITALARINI QO'LLASH BO'YICHA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	137-146
<i>Rasulov Jurabek Abdusamiyevich</i> XALQARO HUQUQ INQIROZI: ZO'RIQISH OSTIDAGI TIZIM	147-152
<i>Nishonov Abdulloh</i> ATOM ENERGIYASIDAN FOYDALANISH JARAYONIDA OBYEKT LARNI JOYLASHTIRISHDA XALQARO EKOLOGIK NORMALARNING HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNING MILLIY QONUNCHILIKKA INTEGRATSIYASI.....	153-159
<i>Yusupdjanova Gulnoza Ilxomovna</i> JINOYAT PROTSESSIDA SUDNING FUNKSIYASI	160-167
<i>Tursoatov Sodik Xudoyor o'g'li</i> YUKSAK XIZMAT KO'RSATISH TUSHUNCHASI VA UNING O'ZBEKISTON QONUNCHILIGIDA IFODALANISHI MASALALARI.....	168-174
<i>Mamadaliyev Boburjon Bahodirjon o'g'li</i> MAHALLIY BUDJETNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNING ILMIY-NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI	175-179
<i>Парахатова Шахноза Ерназаровна</i> ОБРАЗЦЫ ДЛЯ ЭКСПЕРТНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ: ПОНЯТИЕ И ПРАВОВАЯ СУЩНОСТЬ	180-193
<i>Узбекова Дильшода Тулкиновна</i> КЛАССИФИКАЦИЯ МЕР ПРОЦЕССУАЛЬНОГО ПРИНУЖДЕНИЯ	194-202
<i>Norboyev Bobur</i> LEGAL FRAMEWORKS FOR DIGITAL TECHNOLOGY APPLICATION IN LAND CADASTRE: INTERNATIONAL EXPERIENCES AND PRACTICES IN UZBEKISTAN	203-211
<i>Gafurova Shoirax Baxodirovna</i> XALQARO JINOYAT HUQUQIDA DALILLAR INSTITUTINING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI	212-216

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Erkaboyev Oybek Muxammadjonovich</i> HARBIY XIZMATGA TAYYORGARLIK BOSQICHIDA O'QUVCHILARNING JISMONIY SALOHIYATINI SHAKLLANTIRISHDA INTEGRATSIYALASHGAN YONDASHUVLAR: JISMONIY TARBIYA VA CHAQIRUVGA QADAR TAYYORGARLIK ASOSIDA.....	217-221
<i>Kamalova Dilnavoz, Shomurodova Shahzoda</i> KINEMATIKADAN OLIMPIADA MASALALARI: KINEMATIK MASALALARDA YUQORI DARAJALI YECHIM YONDASHUVLARI	222-227

12.00.00 – YURIDIK FANLAR – LAW

Received: 5 July 2025
Accepted: 20 July 2025
Published: 30 July 2025

Article / Original Paper

FOREIGN EXPERIENCE OF PROSECUTORIAL BODIES IN THE APPLICATION OF LEGAL TOOLS OF THE PROSECUTOR

Komilov Avazbek Bokijonovich

The Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan,
Head of Department, PhD in Law, Associate Professor
E-mail: komilov02011985@gmail.com

Abstract. This article is dedicated to a comparative-legal analysis of the application of prosecutor's legal tools by prosecution authorities in foreign countries. The author examines the practices of prosecutor's legal tools in Western (Portugal, France, Germany, Italy) and Eastern European countries (Hungary, Poland, Slovakia, Slovenia), CIS member states (Russia, Belarus, Kazakhstan, Kyrgyzstan, Tajikistan, Turkmenistan), and former CIS member states (Georgia, Ukraine, Moldova), comparing them with the legal framework of Uzbekistan. The article also presents a number of scientific-practical conclusions and proposals.

Keywords: prosecutorial bodies, prosecutorial supervision, legal tools of the prosecutor, acts of prosecutorial supervision.

PROKURATURA ORGANLARI TOMONIDAN PROKUROR HUQUQIY VOSITALARINI QO'LLASH BO'YICHA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI

Komilov Avazbek Bokijonovich

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
kafedra boshlig'i, yu.f.f.d. (PhD), dotsent

Annotatsiya. Mazkur maqola prokuratura organlari tomonidan prokuror huquqiy vositalarini qo'llash bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasini qiyosiy-huquqiy tahlil qilishga bag'ishlangan. Muallif G'arbiy (Portugaliya, Fransiya, Germaniya, Italiya) va Sharqiy Yevropa davlatlari (Vengriya, Polsha, Slovakiya, Sloveniya), MDHga a'zo mamlakatlar (Rossiya, Belarus, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston) va sobiq MDHga a'zo davlatlar (Gruziya, Ukraina, Moldova)ning prokuror huquqiy vositalarini qo'llash amaliyoti va ularni tartibga soluvchi huquqiy asoslarni O'zbekiston qonunchiligi bilan taqqoslab o'rgangan va bir qator ilmiy-amaliy xulosa hamda takliflarni ilgari surgan.

Kalit so'zlar: prokuratura organlari, prokuror nazorati, prokuror huquqiy vositalari, prokuror nazorati hujjatlari.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI6Y2025N19>

Ma'lumki, xalqaro tajribada prokuratura organlarining ikkita asosiy modeli shakllangan. Bunda prokuraturaning u yoki bu model doirasiga kirishi davlatning huquqiy tizimi va davlat mexanizmi tuzilishi bilan o'zaro aloqadordir. Birinchi modelda, prokuratura organlari, avvalambor, jinoiy ta'qib va ayblovdorasi sanalsa, ikkinchi modelda u qonunchilik ustidan nazorat olib boradigan organ hisoblanadi[1].

Tahlillarga asoslangan holda qayd etish lozimki, G'arb davlatlarining aksariyatida prokuratura organlari sudlarda jinoyat va fuqarolik ishlari ko'rilishida ishtirok etib,

fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoyalash, jinoyat qonunchiligi sohasidagi davlat siyosatini ishlab chiqish jarayonida muhim o‘rin tutadi[2]. “Umumiy nazorat” G‘arb amaliyotida uchramaydi, faqatgina Portugaliya va Ispaniya bundan mustasno bo‘lib, Ispaniya Konstitutsiyasining 124-moddasidan kelib chiqib prokuraturaning sud tizimidan ma’lum darajada avtonomligi haqida xulosaga kelish mumkin bo‘ladi[3].

Fransiyada jinoiy ta’qib qilish haqida ish qo‘zg‘atish faqat prokurorga tegishli vakolat sanaladi, shu bilan birga, Fransiya jinoyat-protsessual kodeksining 34 va 39-moddalariga ko‘ra, prokuratura dastlabki tergov ustidan nazorat qiladi, sudda davlat ayblovini qo‘llab-quvvatlaydi[4]. Prokuratura polbsiyaning (surishtiruv) protsessual faoliyati ustidan bevosita rahbarlik (nazorat) qiladi, shuningdek, prokuratura vakillari fuqarolik sud ishlarini yuritish jarayonida ham ishtirok etadilar[5].

Germaniyada prokuratura organlari politsiya xizmati ishtirokida ayrim jinoyat ishlarini tergov qiladi, ayni paytda, ushbu organ sudlar tarkibida faoliyat yuritadi[6]. Shuningdek, Germaniya jinoyat-protsessual kodeksining 161-moddasiga ko‘ra, prokuror politsiyaga bajarilishi majburiy bo‘lgan ko‘rsatmalar (*topshiriq*) beradi[7]. Germaniya prokuraturasining fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlarda ishtiroki nihoyatda cheklangan bo‘lib, ular faqat jamoat ahamiyatga ega bo‘lgan ishlardagina ishtirok etadilar[8].

Italiya prokuraturasi jinoyat ishi qo‘zg‘atadi, dastlabki tergov amalga oshirilishida bevosita ishtirok etadi, sudlarda davlat ayblovini qo‘llab-quvvatlaydi hamda sudlarning noqonuniy va asossiz qarorlariga nisbatan protest keltiradi. Jinoiy ta’qibni amalga oshirishdan tashqari, Italiyada prokuratura organlari sudlarda fuqarolik ishlari (*davlat manfaatlari bilan bog‘liq ishlar ko‘rilishida prokuror ishtiroki majburiy*) ko‘rilishida ham ishtirok etadilar[9].

Sharqiy Yevropa mamlakatlari, jumladan, Vengriya, Polsha, Slovakiya, Sloveniya kabi davlatlar prokuratura organlari faoliyatida ham ba’zi o‘ziga xos jihatlar ko‘zga tashlanadi. Masalan, Vengriya prokuraturasi politsiya idoralarining dastlabki tergov faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirib, politsiyaga yozma yoki og‘zaki ko‘rsatma berish vakolatiga ega hisoblanadi. Prokuror tergovchining har qanday qarorini o‘zgartiradi yoki bekor qiladi va tergov uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga ololadi. Shuningdek, prokuror sudda davlat ayblovini qo‘llab-quvvatlaydi. Ta’kidlash lozimki, Vengriyada prokuraturaning protest keltirish vakolati jinoyat yoki fuqarolik protsessi bilan chambarchas bog‘liq. Xususan, Bosh prokuror qonuniy kuchga kirgan har qanday jinoyat yoki fuqarolik ishi bo‘yicha qabul qilingan sud qarorlari ustidan Oliy sudga protest keltirishi mumkin[10].

Vengriya prokuratura organlaridan farqli tarzda, Polsha prokuraturasi quyidagi nisbatan kengroq faoliyat yo‘nalishlarida ish olib boradi: dastlabki tergovni amalga oshiradi va uni nazorat qiladi; jinoyat ishi qo‘zg‘atadi; jinoyat va fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlarga da’vo kiritadi; sud protsessida jinoyat va fuqarolik ishlari bo‘yicha taraf sifatida ishtirok etadi; ma’muriy protsess, shuningdek sudda huquqning lozim darajada va bir xilda qo‘llanilishini nazorat qiladi; jinoiy jazolarning ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi; ma’muriy organlarning qonunga zid bo‘lgan qarorlari ustidan sudga shikoyat kiritadi; jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiradi; normativ-huquqiy hujjatlarni huquqiy ekspertizadan o‘tkazadi[11].

Slovakiyada prokuratura vazirliklar va muassasalar, hududiy o‘zini o‘zi boshqarish organlari, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qonunlarga to‘liq rioya etilishini nazorat qiladi hamda o‘z vakolatlari doirasida aniqlangan qonunbuzarliklarni bartaraf etish bo‘yicha

choralar ko'radi. Shuningdek, prokurorlar: 1) fuqarolik (*aholining ijtimoiy himoyalangan qatlamlarining huquqlarini himoya qilish bo'yicha ishlarda*) va jinoyat ishlari bo'yicha sud protsesslarida (*jinoyat ishlari bo'yicha prokurorning sud muhokamasida ishtirok etishi majburiy*) ishtirok etadi va sud qarorlariga nisbatan protest keltiradi; 2) dastlabki tergov ustidan nazorat olib borib, tergovchiga ko'rsatmalar beradi, o'zi mustaqil tarzda tergov harakatlarini o'tkazadi, jinoyat ishini qo'shimcha tergovga qaytaradi, tergovchining noqonuniy qarorlarini bekor qiladi hamda qonunda belgilangan hollarda ishni boshqa tergovchiga olib beradi[12].

Sloveniyada prokurorda tijorat faoliyatining amalga oshirilishi ustidan nazorat qilish (*muallif izohi – nazarimizda, qonunlar ijrosi nazoratning bir ko'rinishi deb aytish mumkin*) vakolati bo'lib, qonunchilikning jiddiy buzilish holatlarini aniqlagan taqdirda, ushbu faoliyatni man qilish huquqiga ham egadir. Bundan tashqari, prokuratura: jinoyat ishi qo'zg'atadi; ayblov e'lon qiladi, sudda ayblovni qo'llab-quvvatlaydi; aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish bo'yicha barcha choralarni ko'radi, ushbu maqsadda politsiyaga tergov va tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish bo'yicha topshiriqlar beradi; dastlabki tergov ustidan nazorat olib boradi; fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha sud protsesslarida ishtirok etadi (*prokuror da'vosiga asosan qo'zg'atilgan ishlarda prokuror ishtiroki majburiy hisoblanadi*); sudda davlat ayblovinini qo'llab-quvvatlaydi[13].

Iqtisodiy jihatdan kuchli rivojlangan ayrim G'arb va Osiyo davlatlarining tajribasini o'rganish shuni ko'rsatadiki, ushbu mamlakatlarda garchi qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazorati instituti mavjud bo'lmasa-da, mazkur davlatlarda prokuror nazoratiga bo'lgan zaruratning yo'qligini, fikrimizcha, ushbu davlatlarning tarixan tarkib topgan davlatchilik va huquq tizimiga egaligi, aholining qonunlarga itoatkorlik va sudlarga bo'lgan ishonchi darajasining yuqoriligi, kuchli advokatura va yuridik xizmat tizimining shakllanganligi, jamoatchilik nazorati va antimonopol nazoratning kuchliligi bilan izohlash mumkin[14].

G'arb davlatlaridan farqli ravishda, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo davlatlar, jumladan, Rossiya, Belarus, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmanistonda qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazorati hanuzgacha saqlanib turibdi.

Masalan, Rossiya Federatsiyasi prokuratura organlari tomonidan qo'llaniladigan huquqiy vositalarni tartibga solish sohasidagi ilg'or tajribasi haqida gapirganda, avvalo, ushbu masalalarni tartibga soluvchi huquqiy asoslarni qabul qilish va ularni muntazam takomillashtirib borishga alohida e'tibor qaratilganligini e'tirof etish o'rinli bo'ladi. Chunonchi, "Rossiya Federatsiyasi prokuratura to'g'risida"gi Qonunida: prokurorning qonunlar ijrosini tekshirish bo'yicha huquqi; prokuror tekshiruvini o'tkazish asoslari; prokuraturaning tekshiruv o'tkazish haqida qaror qabul qilish vakolatiga ega mansabdor shaxslar doirasi; tekshiruv o'tkazish haqidagi qarorda uning maqsadi, asoslari va predmetini ko'rsatishga bo'lgan zarurat; tekshiruv predmetini kengaytirish asoslari; rejalashtirilgan tekshirish haqida tekshiruv o'tkaziladigan organ rahbari yoki vakolatli shaxsni xabardor qilish tartibi; tekshiruv o'tkazish muddati va uni uzaytirish tartibi; tekshiruvni to'xtatib turish tartibi; takroriy tekshiruv o'tkazish holatlari; tekshirishga mutaxassislarni jalb qilish masalalari; tekshirish yakuniga ko'ra qonun buzilishi holatlari aniqlanmagan taqdirda rasmiylashtiriladigan hujjatlar nomlanishi; prokurorning tekshiruv o'tkazish bilan bog'liq qarorlari ustidan shikoyat berish tartibi kabi masalalar nisbatan batafsil tartibga solingan[15].

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, "Rossiya Federatsiyasi prokuraturasi to'g'risida"gi Qonunida prokuror ta'sir choralariga (*sh.j. prokuror nazorati hujjatlari*) alohida bob

ajratilmagan. Xususan, Qonunda prokuror nazorati hujjatlari tizimlashgan holda keltirilmagan, ular Qonunning III bo'limi (*Prokuror nazorati*), 1-bobi (*Qonunlar ijrosi ustidan nazorat*) "Prokuror vakolatlari" deb nomlangan 22-moddasida prokuror vakolati sifatida qayd etib o'tilgan. Nazarimizda, Qonunning 23-25¹-moddalari tahlilidan kelib chiqib aytish mumkinki, prokuror nazorati hujjatlariga: prokuror protesti (23-modda), prokuror taqdimnomasi (24-modda), prokuror qarori (25-modda) va qonunning buzilishiga yo'l qo'ymaslik to'g'risida ogohnoma (25¹-modda) kiritiladi. Qonunning 9¹-moddasida ko'rsatilgan normativ-huquqiy hujjatni o'zgartirish to'g'risida talabnoma, 22-moddasida ko'rsatilgan nazorat tadbiri o'tkazish haqidagi talabnomani esa prokuror ta'sir choralari sifatida tushunish mumkin bo'ladi.

"Belarus Respublikasi prokuraturasi to'g'risida"gi Qonunida "prokuror nazorati aktlari"ga alohida 10-bo'lim (38-42-moddalar) ajratilgan bo'lib, ularga: protest, taqdimnoma, qaror, amrnoma, rasmiy ogohlantiruv kiritilgan[16]. O'rganishlar "Belarus Respublikasi prokuraturasi to'g'risida"gi Qonunida qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvlarini tartibga solish masalasi birgina norma, u ham bo'lsa, "Qonunchilik ijrosi bo'yicha tekshiruvlar prokurorning bevosita ta'sir qilishini talab etadigan qonuniylik buzilganligi haqidagi xabarlar va boshqa ma'lumotlar asosida o'tkaziladi" (27-modda 3-qism) degan norma bilan tartibga solinganligini, O'zbekiston qonunchiligi bilan taqqoslaganda esa bizda (*O'zbekiston Respublikasi "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuni 21-moddasi*) prokuror tekshiruvining o'tkazish asoslari nisbatan kengroq ekanligini ko'rinadi.

Qo'shni "Tojikiston Respublikasining prokuratura organlari to'g'risida"gi Qonunida prokuror huquqiy vositalariga alohida bob ajratilmagan, prokuror nazorati hujjatlari tizimlashgan holda keltirilmagan. Biroq, Qonunni huquqiy tahlil qilish natijasida prokuror nazorati hujjatlariga: prokuror protesti (25-modda), prokuror taqdimnomasi (26-modda), prokuror qarori (27-modda) va prokuror amrnomasi (28-modda) kirishini tushunish mumkin bo'ladi. Shuningdek, qonunlar ijrosi yuzasidan prokuror tekshiruvi masalasi Qonunning 3-bobi (*Prokuror nazorati*) 27-moddasi (*Umumiy nazorat predmeti*) 2-qismida bayon etilgan bo'lib, qonunlarga rioya etilishi yuzasidan tekshiruvlar prokurorning bevosita ta'sir qilishini talab etadigan qonuniylikning buzilganligi haqidagi arizalar va boshqa xabarlar asosida, zarurat tug'ilgan hollarda, prokuror tashabbusiga ko'ra o'tkaziladi. Bundan tashqari, Qonunning 29-moddasida prokuror ta'sir hujjatlariga qo'yilgan talablar bayon etilgan bo'lib, unga ko'ra, prokurorning protestida, taqdimnomasida, qarorida yoki amrnomasida qonunning kim tomonidan va qaysi talabi buzilganligi, huquqbuzarlikning mohiyati, mansabdor shaxslar, organlar, tashkilotlar va jismoniy shaxslar qaysi muddatda uni bartaraf etishlari shartligi ko'rsatilishi kerak[17]. Bu kabi normaning milliy qonunchiligimizda uchramaydi. Ushbu norma mazmunidan anglashiladiki, protest, taqdimnoma, qaror va amrnoma nazorat hujjati emas, balki prokuror ta'sir choralari sifatida nazarda tutilgan bo'lib, bizningcha, bu yondashuvni to'g'ri deb bo'lmaydi.

Turkmanistonda ham qonunlar ijrosi yuzasidan prokuror tekshiruvlari va prokuror nazorati hujjatlari huquqiy tartibga solingan. Xususan, "Turkmaniston prokuraturasi to'g'risida"gi Qonunning "Prokuror nazorati aktlari" deb nomlangan 2-bobi 29-moddasida (*Prokuror ta'sir choralari tizimi*) ushbu hujjatlarning tizimi ko'rsatilgan bo'lib, ularga: 1) protest, 2) taqdimnoma, 3) amrnoma, 4) ogohlantiruv, 5) qaror va 6) sudga da'vo ariza (ariza) kiritilgan[18]. Shuningdek, prokuror sanksiyasi (36-modda) va axborot (37-modda)

ham ushbu bob ichida keltirilgan. Shu bois ham, bizningcha, yuqoridagi Qonunda bobning nomi “prokuror nazorati hujjatlari” deb bayon etilgan bo’lsada, bevosita moddaning o’zi “prokuror ta’sir choralari tizimi” deb nomlangan, biroq, bu holat, nazarimizda, “prokuror nazorati hujjatlari” va “prokuror ta’sir choralari” o’rtasidagi chegaraning yo’qolishiga olib kelgan.

Turkmaniston qonunchiligining ijobiy tarafi unda prokuror nazorati hujjatlari ustidan shikoyat qilish masalasining tartibga solinganligida ko’rinadi. Xususan, yuqoridagi Qonunning 11- va 38-moddalariga ko’ra, protest, taqdimnoma, amrnoma, ogohlantiruv, qaror va boshqa hujjatlar ustidan ular kiritilgan organ yoki mansabdor shaxs 10 kunlik muddat ichida yuqori turuvchi prokurorga (*yuqori turuvchi prokuror shikoyatni bir oylik muddatda ko’rib chiqib, natijasi haqida arizachi va quyi turuvchi prokurorni yozma tarzda xabardor qiladi*) shikoyat qilishi mumkin. Shu bilan birga, shikoyat qilish prokuror nazorati hujjatining ijrosini to’xtatib qo’ymaydi. Ustidan shikoyat keltirilgan prokuror nazorati hujjati Turkmaniston qonunchiligiga nomuvofiq deb topilganda, yuqori turuvchi prokuror tomonidan chaqirib olinishi, bekor qilinishi yoki o’zgartirilishi mumkin[19].

Ayrim olimlarning ta’kidlashlaricha, prokuror faoliyati aktlari (*va prokuror ta’sir choralari*) Qozog’iston va Qirg’iz Respublikasining prokuratura to’g’risidagi qonunlarida nisbatan aniq va tizimli tartibga solingan. Jumladan, Qozog’iston Respublikasi “Prokuratura to’g’risida”gi Konstitutsiyaviy Qonunining “Prokuratura hujjatlari” deb nomlangan 5-bobi 32-moddasida (*Prokuratura hujjatlarining tizimi*) 3 ta mustaqil guruhdan iborat hujjatlar tizimi keltirilgan: prokuror nazorati hujjatlari, prokuror ta’sir choralari hamda prokuratura faoliyati va uni tashkil etish masalalarini tartibga soluvchi hujjatlar. E’tiborlisi, qonunda prokuror nazorati hujjatlari va prokuror ta’sir choralari o’rtasidagi chegaralar aniq belgilab qo’yilgan. Shunday qilib, protest, sanksiya, ko’rsatma, taqdimnoma va qaror – prokuror nazorati hujjatlariga, iltimosnoma, ariza (da’vo ariza), murojaat va Qozog’iston Respublikasi qonunlarining buzilishiga yo’l qo’ymaslik to’g’risida tushuntirish – prokuror ta’sir choralariga (aktlariga) kiritilgan[20]. Uchinchi guruh hujjatlarga esa buyruq, farmoyish, nizom, yo’riqnoma, reglament va boshqalar kiritilgan.

Alohida ta’kidlash joizki, Qozog’istonda prokuror tekshiruvlarini o’tkazish, qonuniylik ahvolini tahlil qilish va qonuniy kuchga kirgan hujjatlarga baho berishni tayinlash va o’tkazish tartibi Qozog’iston Respublikasi Bosh prokurorining alohida buyrug’i bilan to’liq tartibga solinganligi ilg’or va o’rnak bo’larli tajriba sanaladi. Bu esa prokuror huquqiy vositalarini tartibga solishning huquqiy asoslarini yaratishda Qozog’istonning O’zbekistonga nisbatan ancha ilgari ketganligini ko’rsatadi. Xususan, Qozog’iston Respublikasi Bosh prokurorining **17.01.2023-yildagi “Prokuror nazoratini tashkil etishning ayrim masalalari to’g’risida”gi 32-son buyrug’i 1-ilovasi bilan prokuratura organlari tomonidan qonuniylikka rioya etilishini tekshirish va qonuniylik holatini tahlil qilishni tayinlash hamda o’tkazish, qonuniy kuchga kirgan hujjatlarga baho berishni amalga oshirish** Qoidalari tasdiqlangan bo’lib, ushbu Qoidalar qonuniylikka etilishini tekshirish, qonuniylik holatini tahlil qilish va qonuniy kuchga kirgan hujjatlarga baho berishni o’tkazish hamda amalga oshirish tartibini batafsil tartibga soladi[21].

Qo’shni “Qirg’iz Respublikasining prokuraturasini to’g’risida”gi Qonunida ham “Qirg’iz Respublikasi prokuraturasining huquqiy aktlari” deb nomlangan alohida 3-bob (*Prokuror ta’sir hujjatlari, 20-30-moddalar*) ko’zda tutilgan. Qonunning 20-moddasida (*Prokuratura huquqiy hujjatlarining tizimi*) barcha hujjatlar guruhlariga ajratilgan: prokuror ta’sir choralari (aktlari),

xalqaro-huquqiy hamkorlik jarayonida qo'llaniladigan hujjatlar, tashkiliy-boshqaruv xususiyatiga ega hujjatlar[22]. Ushbu moddaga ko'ra, prokuror ta'sir choralari guruhiga: protest, taqdimnoma, amrnoma (predpisaniye), ogohlantiruv, qaror, ko'rsatma (ukazaniye), sudga ariza, sud hujjati ustidan shikoyat berish haqida taqdimnoma kiritilgan [23].

Alohida qayd etish kerakki, prokuror ta'sir choralari prokuraturada ro'yxatdan o'tkazilishi kerak va ular ko'rib chiqilguniga qadar uni qo'llagan prokuror yoki yuqori turuvchi prokuror tomonidan o'zgartirilishi, to'ldirilishi yoki bekor qilinishi mumkin (*20-moddaning 4-qismi*) bo'lib, ushbu masalalar bizning qonunchilikda tartibga solinmagan.

Bizningcha, "Qirg'iz Respublikasining prokuraturasi to'g'risida"gi Qonunidagi eng e'tiborga molik jihat prokuror ta'sir hujjatlarini majburiy ijro etish mexanizmining tartibga solinganligidadir. Xususan, mazkur Qonunning 29-moddasi 1-qismiga binoan, prokuror ta'sir choralari ixtiyoriy ravishda bajarilmagan taqdirda, prokuror prokuror talablarini majburiy ijro etish to'g'risida qaror (*mol-mulkdan majburan mahrum etishni nazarda tutuvchi holatlar bundan mustasno*) chiqarishga va uni ijro uchun vakolatli davlat organlariga yuborishga haqli. Vakolatli davlat organlari prokurorning tegishli qarorini olgandan so'ng darhol uni bajarish choralari ko'rishlari shart.

Bundan tashqari, prokuratura organlari o'z faoliyatining oshkoraligini ta'minlash maqsadida ommaviy axborot vositalarida organlar va mansabdor shaxslarning qonunga xilof xatti-harakatlari hamda qarorlari ustidan qo'llanilgan prokuror ta'sir hujjatlarini e'lon qilishlari mumkinligi (*30-modda*) ham Qirg'iz milliy qonunchilikning yana bir ijobiy jihati desak adashmagan bo'lamiz.

Qirg'iziston milliy qonunchiligining keyingi ijobiy tarafi unda prokuror xatti-harakatlari va prokuror ta'sir hujjatlari ustidan shikoyat qilish tartibining belgilanganligidir. Misol uchun, yuqoridagi Qonunning 8-moddasiga ko'ra, prokuror xatti-harakatlari va prokuror ta'sir hujjatlari ustidan yuqori turuvchi prokuror yoki sudga shikoyat berish mumkin. 8-moddaning 2- va 3-qismlariga asosan, sud yoki yuqori turuvchi prokuror xatti-harakatlar yoki prokuror ta'sir choralari ustidan berilgan shikoyat qilish bo'yicha qaror qabul qilinguniga qadar ularning ijrosini to'xtatib qo'yishi mumkin. Yuqori turuvchi prokuror fuqarolar va (yoki) yuridik shaxslarning iltimosnomasi yoki o'z tashabbusiga ko'ra quyi turuvchi prokurorning prokuror ta'sir choralari chaqirib olish vakolatiga ham ega hisoblanadi.

Shu o'rinda qayd etish o'rinliki, sobiq MDHga a'zo davlatlarning (*Gruziya, Ukraina, Moldova*) tadqiq etilayotgan mavzuga doir tajribasida bir qancha o'ziga xos jihatlar ko'zga tashlanadi. Chunonchi, ushbu mamlakatlarda prokuratura organlari faoliyati Yevropa mamlakatlari prokuraturalarining faoliyatiga o'xshash tarzda tashkil etilgan. Mazkur davlatlarda prokuratura qonunlar ijrosi ustidan nazoratni ("*umumiy nazorat*") amalga oshirmaydi.

Masalan, Gruziya Respublikasining 30.11.2018-yilda qabul qilingan "Prokuratura to'g'risida"gi Qonunining 12-bobi to'lig'icha prokuror hujjatlari tizimiga (*46-54-moddalar*) bag'ishlangan. Xususan, Qonunning 46-moddasiga binoan, prokuratura hujjatlari tizimini: 1) talabnoma; 2) taqdimnoma; 3) protest; 4) qaror; 5) rozilik; 6) ko'rsatma; 7) shikoyat tashkil qiladi[24]. Biroq, Qonunda qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvlari masalasi tartibga solinmagan.

So'nggi 10-yillikda Ukraina milliy qonunchiligida ham prokuror huquqiy vositalari bilan bog'liq sezilarli o'zgarishlar ro'y berdi. Xususan, 18.09.2012-yilda qabul qilingan "Prokuratura

faoliyatini takomillashtirish masalalari bo'yicha ayrim Ukraina aktlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi Qonunga asosan, prokuror tekshiruvlari faqatgina davlat hokimiyati organlari, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari, deputatlar, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari, shuningdek tekshirish haqida majburiy qaror chiqarish orqali prokurorning shaxsiy tashabbusi asosida amalga oshirilishi qat'iy belgilandi. Shuningdek, prokuror vakolatlarini optimallashtirish maqsadida bir qator prokuror ta'sir aktlari (*protest va ko'rsatma*) qisqartirildi[25].

O'rganishlar yakuniga ko'ra, Moldova va Ukrainaning "Prokuratura to'g'risida"gi qonunlarida prokuror tekshiruvlari va prokuror huquqiy vositalari, jumladan prokuror nazorati hujjatlarini tartibga soluvchi alohida moddalar mavjud emasligi ma'lum bo'ldi.

Umuman olganda, prokuror huquqiy vositalarini qo'llash bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasini qiyosiy-huquqiy o'rganish natijasiga ko'ra, quyidagi xulosalarni ilgari surish mumkin bo'ladi:

Birinchidan, qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazorati ("*Umumiy nazorat*") G'arb amaliyotida uchramaydi, ushbu davlatlarning aksariyatida (*sh.j., Portugaliya, Fransiya, Germaniya, Italiya va h.k*) prokuratura jinoiy ta'qibni amalga oshiradi, jinoyat ishlarini tergov qiladi va dastlabki tergov ustidan nazorat qiladi, politsiyaning (surishtiruv) protsessual faoliyati ustidan rahbarlik qiladi, sudlarda jinoyat va fuqarolik ishlari (*cheklangan toifadagi ishlarda*) ko'rilishida ishtirok etib, sudlarning noqonuniy va asossiz qarorlariga nisbatan protest keltiradi, jinoyatlarni oldini olish va unga qarshi kurashish masalalari bo'yicha davlat siyosati ishlab chiqilishida ishtirok etadi.

Ikkinchidan, Sharqiy Yevropa mamlakatlarida ham (*sh.j., Vengriya, Polsha, Slovakiya, Sloveniya*) prokuratura organlari politsiyaning dastlabki tergov faoliyati ustidan nazorat qiladi, aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish yuzasidan barcha zaruriy choralarni ko'radi, shu maqsadda politsiyaga tergov va tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish bo'yicha topshiriqlar, bajarilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar beradi, sudda davlat ayblovini qo'llab-quvvatlaydi, jinoyat va fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarga da'vo kiritadi, jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiradi. Sharqiy Yevropa mamlakatlaridan Sloveniyada qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazoratining ayrim elementlari mavjud. Xususan, Sloveniya prokuraturasi tijorat faoliyatining amalga oshirilishi ustidan nazorat qiladi.

Uchinchidan, rivojlangan G'arb va Osiyo davlatlarida qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazorati institutiga bo'lgan zaruratning yo'qligi, ushbu davlatlarning tarixiy davlatchilik va huquq tizimiga ega ekanligi, aholining qonunlarga itoatkorlik va sudlarga bo'lgan ishonchi darajasining yuqoriligi, kuchli advokatura va yuridik xizmat tizimining shakllanganligi, jamoatchilik nazorati va antimonopol nazoratning kuchliligi bilan izohlanadi.

To'rtinchidan, MDH mamlakatlarida (*sh.j., Rossiya, Belarus, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston*) qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazorati, prokuror huquqiy vositalarining huquqiy asoslarini mustahkamlash va takomillashtirishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Yuqoridagi masalalar Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Turkmaniston va Qirg'iziston milliy qonunchiligida O'zbekistonga nisbatan mukammalroq hamda to'liqroq tartibga solingan.

Beshinchidan, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Belarus va Turkmanistonda qonunlar ijrosi yuzasidan prokuror tekshiruvlari hamda prokuror nazorati hujjatlari bir xilda huquqiy tartibga solingan.

Oltinchidan, Rossiya Federatsiyasi qonunida prokuror ta'sir choralari (sh.j. *prokuror nazorati hujjatlari*), Tojikiston qonunida prokuror huquqiy vositalariga alohida bob ajratilmagan bo'lsa, qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvlarini tartibga solishga qaratilgan normalar Qirg'iz Respublikasi qonunida mavjud emas.

Yettinchidan, Qozog'istondagina prokuror tekshiruvlarini tayinlash va o'tkazish tartibi Bosh prokurorning alohida sohaviy buyrug'i bilan batafsil tartibga solingan. Faqatgina Qozog'iston qonunida prokurorning tekshiruv o'tkazish jarayonidagi huquqlari va tekshirilayotgan subyektlarning huquq va majburiyatlari aniq belgilab qo'yilgan.

Sakkizinchidan, faqatgina Qozog'iston va Qirg'iz Respublikasining prokuratura to'g'risidagi qonunlarida prokuror huquqiy hujjatlarining tizimi guruhlariga ajratilgan holda qayd etilgan. Ayniqsa, Qozog'iston qonunida prokuror nazorati hujjatlari va prokuror ta'sir choralari o'rtasidagi chegaralar aniq belgilab berilgan. Qozog'istonda prokuror nazorati hujjatlari va ta'sir choralari ko'rib chiqish va bajarish majburiy hisoblanadi. Qirg'iz Respublikasida esa prokuror ta'sir hujjatlarini majburiy ijro etish mexanizmining tartibga solingan bo'lib, ular ixtiyoriy bajarilmagan taqdirda, prokuror talablarini majburiy ijro etish to'g'risida qaror chiqariladi.

To'qqizinchidan, Qirg'iziston qonunida yuqori turuvchi prokurorning quyi turuvchi prokurorning ta'sir choralari chaqirib olish, shuningdek, Qirg'iziston va Turkmaniston qonunida prokuror ta'sir choralari o'zgartirish, to'ldirish yoki bekor qilish masalasi tartibga solingan.

O'ninchidan, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston va Turkmaniston milliy qonunchiligida prokuror xatti-harakatlari va prokuror ta'sir hujjatlari ustidan shikoyat qilish tartibi belgilangan.

O'n birinchidan, sobiq MDHga a'zo davlatlarda (sh.j., *Gruziya, Ukraina, Moldova*) prokuratura faoliyati klassik modeldan (*"umumiy nazorat"*) yevropacha model tomonga transformatsiya bo'lib bormoqda. Bugungi kunda ushbu mamlakatlarda prokuraturaning qonunlar ijrosi ustidan nazorat funksiyasi tugatilib, bir qator prokuror nazorati hujjatlari qisqartirilib (*Ukraina*) borilmoqda. Mazkur davlatlar prokuraturalari asosan: jinoiy ta'qib qilish, qonunda belgilangan hollarda tergovni amalga oshirish (*Gruziya*), tezkor-qidiruv faoliyatini, surishtiruv va sudga qadar tergovni amalga oshiruvchi organlar tomonidan qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish, sudlarda davlat ayblovinini qo'llab-quvvatlash, jinoyat ishlari bo'yicha sud qarorlarining bajarilishi, shuningdek fuqarolarning shaxsiy erkinligini cheklash bilan bog'liq boshqa majburlov choralari qo'llanilishida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish (*Ukraina*), jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirish kabi yo'nalishlarda faoliyat olib bormoqda.

O'n ikkinchidan, Gruziya, Ukraina va Moldovaning "Prokuratura to'g'risida"gi qonunlarini o'rganish ushbu davlatlardan, faqatgina, Gruziya Respublikasi qonunida prokuror hujjatlariga alohida bob ajratilganligini ko'rsatadi. Moldova va Ukraina qonunlarida prokuror tekshiruvlari va prokuror nazorati hujjatlari, Gruziya qonunida prokuror tekshiruvlari masalasi tartibga solinmagan.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. A.B.Komilov. Tadbirkorlarni huquqiy himoya qilishga qaratilgan qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazoratining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish. Monografiya /

- Mas'ul muharrir O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yurist, yu.f.d., prof. O.Okyulov. – Toshkent: IMPRESS MEDIA, 2021. – B. 98.
2. A.B.Komilov. Tadbirkorlarni huquqiy himoya qilishga qaratilgan qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazoratining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish. Monografiya / Mas'ul muharrir O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yurist, yu.f.d., prof. O.Okyulov. – Toshkent: IMPRESS MEDIA, 2021. – B. 100-101.
 3. Конституционно-правовой статус прокуратуры в России и в зарубежных странах (сравнительно-правовое исследование): монография / [Э.Н.Примова и др.]; Акад. Ген. Прокуратуры Рос. Федерации. – М., 2017. – С. 17.
 4. Конституционно-правовой статус прокуратуры в России и в зарубежных странах (сравнительно-правовое исследование): монография / [Э.Н.Примова и др.]; Акад. Ген. Прокуратуры Рос. Федерации. – М., 2017. – С. 22, 91.
 5. Прокурорский надзор зарубежных стран: учебник для студентов вузов, обучающихся по направлению подготовки «Юриспруденция» / [А.В.Ендольцева, О.В.Химичева, Н.Д.Эриашвили и др.]; – М.: ЮНИТИ-ДАНА: Закон и право, 2015. – С. 35.
 6. Князева Е.Г. Прокурорский надзор в зарубежных странах // Юрист-правовед, 2009, № 1. – С. 98-101.
 7. Х.Путцке, А.Н.Таргабаев, А.Д.Назаров, Л.В.Майорова. Роль прокурора в предупреждении и устранении следственных ошибок: российский и немецкий опыт // Russian Journal of Criminology, 2018, vol. 12, no. 3, p. 426.
 8. Женетль С.З. Проблемы прокурорского надзора за соответствием правовых актов субъектов Федерации Конституции РФ и федеральному законодательству: Дисс. ... канд. юрид. наук. – М.: Научно-исследовательский институт проблем укрепления законности и правопорядка при Генеральной прокуратуре РФ, 2002. – С. 79.
 9. Прокурорский надзор зарубежных стран: учебник для студентов вузов, обучающихся по направлению подготовки «Юриспруденция» / [А.В.Ендольцева, О.В.Химичева, Н.Д.Эриашвили и др.]; – М.: ЮНИТИ-ДАНА: Закон и право, 2015. – С. 42.
 10. Конституционно-правовой статус прокуратуры в России и в зарубежных странах (сравнительно-правовое исследование): монография / [Э.Н.Примова и др.]; Акад. Ген. Прокуратуры Рос. Федерации. – М., 2017. – С. 132-134.
 11. Конституционно-правовой статус прокуратуры в России и в зарубежных странах (сравнительно-правовое исследование): монография / [Э.Н.Примова и др.]; Акад. Ген. Прокуратуры Рос. Федерации. – М., 2017. – С. 135-137.
 12. Конституционно-правовой статус прокуратуры в России и в зарубежных странах (сравнительно-правовое исследование): монография / [Э.Н.Примова и др.]; Акад. Ген. Прокуратуры Рос. Федерации. – М., 2017. – С. 139-140.
 13. Конституционно-правовой статус прокуратуры в России и в зарубежных странах (сравнительно-правовое исследование): монография / [Э.Н.Примова и др.]; Акад. Ген. Прокуратуры Рос. Федерации. – М., 2017. – С. 141-142.
 14. А.Б.Комилов. Тадбиркорларни ҳуқуқий ҳимоя қилишга қаратилган қонунлар ижроси устидан прокурор нazorатининг ташкилий-ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш. Монография / Мас'ул муҳаррир Ўзбекистонда хизмат кўрсатган юрист, ю.ф.д., проф. О.Окюлов. – Тошкент: IMPRESS MEDIA, 2021. – Б. 104.
 15. Проблемы обеспечения законности и практика прокурорского надзора: сб. материалов круглого стола аспирантов и молодых ученых Ун-та прокуратуры Рос.Федерации (г. Москва, 27 февраля 2019 г.) под ред. проф. А.Ю.Винокурова; Ун-та прокуратуры Рос.Федерации. – М., 2019. – С. 64-65.
 16. Прокурорский надзор зарубежных стран: учебник для студентов вузов, обучающихся по направлению подготовки «Юриспруденция» / [А.В.Ендольцева,

- О.В.Химичева, Н.Д.Эриашвили и др.]; – М.: ЮНИТИ-ДАНА: Закон и право, 2015. – С. 46-47.
17. Электрон манба: <https://www.prokuratura.tj/legislation-rus/49-the-constitutional-law-of-the-republic-of-tajikistan.html> (мурожаат вақти: 16.03.2024).
18. Электрон манба: <https://mejlis.gov.tm/single-law/144?lang=ru> (мурожаат вақти: 17.03.2024).
19. Электрон манба: <https://mejlis.gov.tm/single-law/144?lang=ru> (мурожаат вақти: 17.03.2024).
20. Деятельность прокуратуры Российской Федерации по защите прав и свобод человека и гражданина, охраняемых законом общества и государства (Сухаревские чтения): сб. материалов V Всерос. науч.-практ. конф. (Москва, 11 октября 2019 г.) / под общ. ред. О.С.Капинус; [науч. ред. А.Ю.Винокуров; сост. И.А.Васькина и др.]; Ун-т прокуратуры Рос. Федерации. – М., 2020. – С. 144-145.
21. Электрон манба: https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=34417400&sub_id=100&pos=24;-54#pos=24;-54. (мурожаат вақти: 18.03.2024).
22. Деятельность прокуратуры Российской Федерации по защите прав и свобод человека и гражданина, охраняемых законом общества и государства (Сухаревские чтения): сб. материалов V Всерос. науч.-практ. конф. (Москва, 11 октября 2019 г.) / под общ. ред. О.С.Капинус; [науч. ред. А.Ю.Винокуров; сост. И.А.Васькина и др.]; Ун-т прокуратуры Рос. Федерации. – М., 2020. – С. 144-145.
23. Электрон манба: <https://cbd.minjust.gov.kg/112293/edition/1380/ru?ysclid=lu58dp30za22410383> (мурожаат вақти: 19.03.2024).
24. Электрон манба: <https://www.matsne.gov.ge/ru/document/download/4382740/10/ru/pdf> (мурожаат вақти: 20.03.2024).
25. Курская К.Е. Реформирование полномочий прокуратуры Украины в контексте европейских стандартов: ключевые аспекты деятельности вне сферы уголовного судопроизводства // «Наука. Общества. Государства», 2014, №3 (7). – С. 4.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 5/6 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).